

Key Indicators of Efficiency of Reclamation Measures on Irrigated Land

N. J. Mamanazarova

Annotatsiya. Ma'lumki bugungi kunda qishloq xo'jaligida yer osti suvlarining ko'tarilishi natijasida tuproqlar sho'rlanishiga olib kelmoqda. Darhaqiqat, sohaga irrigatsiya xizmatlari ko'rsatishda moliyaviy muammolarning mavjudligi yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan yerlarida meliorativ tadbirlar samaradorligini oshirishga qaritilgan takliflar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Kalit sozlar: meliorativ tadbirlar, yer va suvlari, suv iste'molchilari uyushmasi, irrigatsiya xizmatlari, sug'orish suvi, sug'orma dehqonchilik, kollektor-zovur tarmoqlari, suv zahiralari, irrigatsiya-melioratsiya fondlari



Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda irrigatsiya xizmatlari ko'rsatish jarayonida meliorativ tadbirlarga asos bo'ladigan tashkiliy, iqtisodiy, texnik, moliyaviy muammo va kamchiliklar mavjud bo'lib, ularning yillar davomida ortib borishi yer osti suvlari sathi ko'tarilishiga, tuproqlar sho'rlanishiga sabab bo'lmoqda va bu holat yer-suv resurslaridan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlarini o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu masalalarni ijobiy hal etishda, avvalambor sug'oriladigan yerlarda suv iste'molini rejalashtirish va tashkil etishni takomillashtirish, tarmoqning tuproq-meliorativ sharoitlaridan foydalanish darajasini yaxshilash, irrigatsiya xizmatlarini tashkil etish hamda boshqarishni soha bo'yicha malakali mutaxassislar bilan ta'minlashdan iborat. Shuningdek, suv iste'molchilari uyushma (SIU)larining texnik va moliyaviy ta'minotini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, 2017–2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "...sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish..."¹ masalalari tarmoqda amalga oshiriladigan ustivor vazifalar sifatida qo'yildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.Z.A.Artukmetov ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda jami foydalaniladigan suvlarning 92 foizi sug'orishga, 5,5 foizi kommunal-maishiy xo'jalik va 1,5 foizi sanoat extiyojlariga, 0,8 foizi balikchilikka va 0,2 foizi energetika maqsadlarida foydalaniladi².

Irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi olimlar tomonidan bildirilgan munosabatlar qimmatli ahamiyatga ega. Jumladan, O'.P.Umurzaqov, T.Rizaevlar sug'oriladigan yerlarda ushbu xizmat turining rivojlanishi uni boshqarishda ishtirok etuvchilarning real rag'batiga bog'liq, deb hisoblaydilar. Suv iste'molchilari suv xo'jaligi ob'ektlarini saqlash, uni ishonchli ishlashini ta'minlash uchun katta sarf harajatlar qiladilar. Shu sabab, ular ushbu harajatlarni to'la oqlanishidan manfaatdor bo'ladi. Bunday sharoitda suv iste'molchilarini rag'batlantiruvchi asosiy omil – bu suvni kafolatli ta'minlashdir. Suv iste'molchilari eng arzon suvga hamma vaqt ham asosiy e'tiborini qaratmaydi, aniqrog'i ular suvga yuqori haq to'lashga doimo tayyor, agar suv ta'minoti va xizmatlar kafolatlangan bo'lsa³.

Z.S.Shoxo'jaeva qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlarini muntazam joriy va kapital ta'mirlashni o'z vaqtida olib borilishi suvlardan foydalanish koeffitsientini ko'tarilishi hisobiga irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlardan foydalanish samaradorligini oshiradi, degan fikrni ilgari suradi. Shuningdek, sug'orish tizimi qanday bo'lmasin baribir moliyaviy mablag' bilan bog'liqligini ta'kidlaydi⁴.

A.Abdug'aniev, A.A.Abdug'anievlar esa, yerlarning irrigatsiya va melioratsiya holati yomonlashayotganligi, ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan almashlab ekish to'liq joriy etilmayotganligi, sug'orish inshootlarining ishga yaroqlilik holati pasayishi, yer va suvlardan samarali foydalanganlik uchun rag'batlantirishning sustligini irrigatsiya xizmatlari va meliorativ

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017, №6 (766). – B. 223–248..

² Artukmetov Z..A. Suv resurslari va suvdan foydalanish – T.: TDAU, 2007. –3 b.

³ Umurzaqov O'.P., Rizaev T. Suv iste'molchilari uyushmalarini barqaror rivojlantirish imkoniyatlari // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2011. –№11. –25 b.

⁴ Shoxo'jaeva Z.S. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish / Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –Qarshi, 2010. –25,131 b.

tadbirlarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan sabablar qatoriga qo'shadilar⁵.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning muvaffaqiyati, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan ushbu tarmoqning ishlab chiqarishida yer va suv resurslaridan oqilona hamda samarali foydalanishga bog'liqdir.

Bunday sharoitda yer va suv resurslarini, suv xo'jalik ob'ektlarini samarali ishlatish bilan bog'liq irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlardan o'zaro bog'liqlikda foydalanishga alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi. Xususan, dehqonchilikning sug'orishga asoslanganligi va bu faoliyatda suvni katta qismini qaytmas tarzda ishlatilishi, 1 gektar ekin maydonida bir xil ekin yetishtirish uchun turli me'yordagi suvni talab etilishi, suv manbalarining transchegaraviy daryolar bilan bevosita bog'liqligi, sug'orish tarmoqlarida qishloq xo'jalik ekinlarining vegetatsiya davridagi suv ta'minotining tabiiy omillar hisobiga kafolatli emasligi va sun'iy suv zahiralardan foydalanishning zarurligi, suvdan cheklangan miqdor bo'yicha foydalanish tartibining o'rnatilganligi, suv resurslariga bo'lgan talabning muttasil o'sib borishi va mavjud suv zahiralarning yetishmasligi, sug'orish tarmoqlarining oxirida joylashgan suv iste'molchilariga doimiy suv yetishmasligi, sug'oriladigan yerlarda mavjud ko'rsatilayotgan irrigatsiya xizmatlari sifatini yerlarning meliorativ holatiga salbiy ta'sir qilishi kabi holatlar tarmoqda irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlardan doimiy ravishda o'zaro bog'liqlikda foydalanishni va uni rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, mamlakatimizda irrigatsiya va meliorativ tadbirlarning barcha xarajatlari to'liq davlat byudjeti hisobidan qoplanishi qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil olishda muhim omil bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini suv bilan kafolatli ta'minlash maqsadida har yili davlat byudjetidan 2 trillion so'mdan ortiq, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun 400 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratilmoqda. Ushbu ma'lumotlar sug'oriladigan yerlardan foydalanishda irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlarni rivojlantirishga alohida e'tiborni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, sug'oriladigan yerlarda irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ushbu xizmatlarni rejalashtirish, loyihalashtirish va irrigatsiya-melioratsiya fondlaridan samarali foydalanish jarayonida ularning o'zlariga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni hisobga olish lozim.

Birinchiidan, qishloq xo'jalik ekinlari o'sishidagi biologik xususiyatlarini hisobga olishning murakkabligi ya'ni bir xil o'lchamdagi maydonda bir xil ekin yetishtirish uchun har-xil me'yorlarda suv sarflanish holati mavjud. Bu barcha sug'oriladigan yerlar uchun suv resurslari manbai tarkibini qishloq xo'jaligi ekinlari suv iste'moli hajmi bilan moslashtiradigan takomillashgan xizmat ko'rsatish tizimini yaratishga to'sqinlik qiladi.

Ikkinchiidan, sug'oriladigan yerlar kesimida suv resurslarining notekis taqsimlanganligi va bitta xududning tuproq-meliorativ sharoitlarini turli-tumanligi kuzatiladi. Shuning uchun, suv iste'molchilari va suvdan foydalanuvchilar o'rtasida suvlarni qayta taqsimlash, yerlarning meliorativ holatini muntazam va tizimli yaxshilab turish uchun byudjet mablag'larini

⁵Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik. –T.: TDIU, 2010. –83 b.

sarflanishiga olib keladi.

Uchinchidan, o'z vaqtida va kerakli hajmlardagi irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlarni 80 foiz atrofida transchegara suvlari hisobiga amalga oshiriladi va bunday holat ushbu xizmatlarni chegaradosh mamlakatlarning ushbu suvlarga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariga qarab shakllanishiga, resurstejamkor texnologiyalardan foydalanishga, suv isrofgarchiligini oldini olishga majbur qiladi.

To'rtinchidan, irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlardan foydalanish jarayonida tabiiy resurs (er va suv) lar sifatiga ta'sir o'tkaziladi. Buning oqibatida cheklangan tabiiy resurslar qatoriga kiruvchi sug'orish suvi va sug'oriladigan yerlardan iqtisodiy faoliyatda foydalanish imkoniyati qisqarishi sodir bo'ladi.

Beshinchidan, suv iste'molchilari va suvdan foydalanuvchilarni sug'orish tarmog'iga nisbatan joylashuvining irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlarni ko'rsatish, agromahsulot yetishtirish samaradorligiga ta'siri mavjud.

Oltinchidan, sug'oriladigan yerlarda ko'rsatiladigan irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlarga bozor tamoyillari va mexanizmlarini qo'llash imkoniyatlarining cheklangan. Chunki, suv ta'minotida raqobat bo'lishi mumkin emas, chunki suv bitta ariq yoki manbadan beriladi, bunda bozor munosabatlari cheklangan, boshqacha aytganda, bu tabiiy monopoliya hisoblanadi, shuningdek, suvga va irrigatsiya-melioratsiya fondlariga davlat mulkchiligi mavjud va hokazolar.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha ushbu ko'rsatkichlar quyidagi 1-jadval ma'lumotlarida keltirilgan va tahlil qiligan.

1-jadval Qashqadaryo viloyatida suv resurslaridan foydalanish tarkibi⁶

| t/r | Ko'rsatkichlar | O'lch birligi | Yillar | | | | | | 2020-y 2005-yga nisb. o'zg. % his.-da |
|-----|--------------------------|-----------------------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|---|
| | | | 2005 | 2010 | 2012 | 2014 | 2016 | 2020 | |
| 1 | Manbalardan olingan jami | mln ³ m | 4985,9 | 6367,0 | 3821,8 | 6398,2 | 5745,7 | 5439,8 | 109,1 |
| | salmog'i | % | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | - |
| 2 | Sug'orishga | mln ³ m | 4530,8 | 5671,3 | 3327,4 | 6043 | 5380,2 | 5140 | 113,4 |
| | salmog'i | % | 90,8 | 89,0 | 87,1 | 94,4 | 93,6 | 94,5 | 1,04 punkt. ko'paygan |
| 3 | Sanoat | mln ³ m | 14,3 | 24,5 | 18,7 | 25,6 | 21,0 | 17,7 | 123,8 |
| | salmog'i | % | 0,3 | 0,4 | 0,5 | 0,4 | 0,4 | 0,3 | - |
| 4 | Kommuna xo'jaligiga | mln ³ m | 54,1 | 256,6 | 150,7 | 255,9 | 259,1 | 206,4 | 381,5 |

⁶Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

| | | | | | | | | | |
|---|-------------|-----------------------|-------|-------|-------|-------|-------|------|-------------------|
| | salmog'i | % | 1,2 | 4,0 | 4,0 | 4,0 | 4,5 | 3,8 | 3,2 punkt. oshgan |
| 5 | Energetika | mln ₃ m | 235,1 | 409,4 | 320,4 | 580,9 | 561,8 | 575 | 227,2 |
| | salmog'i | % | 4,3 | 6,4 | 8,4 | 9,1 | 9,8 | 10,5 | 2,4 punkt. oshgan |
| 6 | Baliqchilik | mln ₃ m | 1,1 | 5,2 | 4,6 | 5,0 | 7,5 | 5,5 | 500 |
| | salmog'i | % | 0,02 | 0,08 | 0,12 | 0,08 | 0,1 | 0,1 | 5 punkt. oshgan |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, viloyatda suv manbalaridan haqiqatda olingan suvlarning eng katta ulushi yoki 95 foizga yaqini qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishga sarflanadi. Ammo, suv resurslaridan ekinlarni sug'orishda foydalanishning amaldagi darajasi, uni ko'paytirish imkoniyatlarining chegaralanganligi sug'oriladigan yerlarda irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlardan foydalanishni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni doimiy zaruriyatga aylantiradi.

Bu esa, o'z navbatida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda suvlarni yetishmasligi sabablarini, sug'orish suvidan unumli foydalanish yo'llarini hamda samarali irrigatsiya xizmati va meliorativ tadbirlarni shakllantirish sharoitlarini sug'oriladigan yerlardan qidirish lozimligini ko'rsatadi, shuningdek, uni rivojlantirishni soha mutaxassislarining asosiy vazifasiga aylantiradi.

Markazlashtirilgan boshqaruv tizimi va davlat byudjeti hisobiga sug'oriladigan yerlarni moliyalashtirish suv iste'molchilariga samarali xizmatni ta'minlay olmaydi. Buning asosiy sababi esa, irrigatsiya tarmoqlari va yerlarning meliorativ holatining yomonlashib borishi, suvning iqtisodiy samaradorligining sekin o'sishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi, atrof-muhitni ifloslanishi, suv taqsimotidagi kamchiliklar, suv isrofgarchiligining ko'pligi va hokazolardir.

Shuning uchun, sug'orma dehqonchilikda yer-suvdan tejamli foydalanish va ularning samaradorligini oshirishni sug'oriladigan yerlarda faoliyat olib borayotgan sub'ektlarining o'zlariga yuklatish eng maqbul usuldir. Shuningdek, beg'araz amalga oshiriladigan xalqaro grantlar va texnik ko'mak bo'yicha dasturlarni amalga oshirish orqali moliyalashtirishning ham o'ziga xos o'rni mavjud.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarda irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlarning samaradorligini har birini alohida-alohida ifodalangan, lekin, ushbu samaradorliklarni o'zaro bog'liqligi masalasiga e'tibor qaratilmagan. Jumladan, irrigatsiya xizmatlariga yuqorida keltirilgan suv iste'moli va suvdan foydalanishni rejalashtirish, tashkil etish hamda boshqarishdan tashqari, ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash-tiklash, cho'kindilardan tozalash, nasos stantsiyalari va agregatlarini ta'mirlash, suv olish nuqtalarini suv o'lchash vositalari bilan jihozlash, yangi yerlarni o'zlashtirish va shu kabilarni ham kiritiladi.

Ayni vaqtdagi meliorativ tadbirlar qatoriga xo'jaliklararo va ichki xo'jalik kollektor-zovur tarmoqlarini ta'mirlash-tiklash, meliorativ nasos agregatlarini ta'mirlash, yerlarning sho'rini yuvish, yangi meliorativ inshootlarni qurish, kollektor-zovur suvlari oqimi va sifatini aniqlash, sizot suvlari sathining o'zgarishini kuzatib borish, sug'oriladigan yerlarni kapital tekislash va hokazolarni kiritish mumkin. Ushbu xizmatlar "Davsuvmaxsuspudrat" davlat unitar korxonalari va Melioratsiya ekspeditsiyalari tomonidan ko'rsatiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, irrigatsiya xizmatlarining meliorativ tadbirlariga ta'siri, aloqadorligi nuqtai nazaridan ushbu xizmatlar bo'yicha quyidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1 ga ekin maydoniga haqiqatda berilgan suvni me'yorga nisbatan salmog'ini aniqlash sug'orish me'yorlariga amal qilinish yoki qilinmaslik holatlariga baho berishda qo'llaniladi va suv isrofgarchiligini oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga ko'maklashadi.
- 1 m³ tejalgan suv hisobiga olinishi mumkin bo'lgan mahsulot, foyda ko'rsatkichlari suv tejaydigan texnika va texnologiyalarni qo'llash orqali sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshi holda saqlash imkoniyatlarini kengaytirish va yo'qotishlar ko'lamini bashorat qilishda qo'l keladi.
- Suv tejaydigan texnologiyalar qo'llanilayotgan maydonlarning jami sug'oriladigan maydonlardagi salmog'i ushbu texnologiyalarni joriy etilish darajasini aniqlashda manba vazifasini o'taydi.
- Suv tejaydigan texnologiyalar qo'llanilishi hisobiga olingan qo'shimcha hosil, mahsulot, foyda ko'rsatkichlari esa, qo'llanilayotgan texnologiyalarning samaradorligiga baho berishda ishlatilishi mumkin.
- Sizot suvlarining joylashish chuqurligi 0–2 metr bo'lgan sug'oriladigan yerlar agromahsulot yetishtirish uchun eng maqbul maydonlar bo'lib hisoblanadi, shuning uchun uning salmog'ini bilish va oshirish lozim.
- Sizot suvlarining sho'rlanish darajasi 0–3 g/l bo'lgan sug'oriladigan yerlar tadqiqotlar natijalariga binoan qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirishda eng maqbul meliorativ sharoitlar qatoriga kiritiladi, shu bois, ushbu maydonlar salmog'ini eng kamida pasaytirmaslik yoki oshirish borish talab qilinadi.
- Sho'rlanmagan yerlarni jami sug'oriladigan yerlardagi salmog'ini ko'tarilishi sizot suvlari joylashish chuqurligi va ularning sho'rlanish darajasini maqbullashtirish evaziga yerlarning meliorativ holatidagi ijobiy holatlarni ko'rsatadi.
- Sug'oriladigan yerlarda meliorativ holati yaxshi maydonlarning salmog'ining ortib borishi irrigatsiya xizmatlarini melioratsiya xizmatlariga ko'rsatayotgan ijobiy ta'sirini ifodalaydi.
- 1000 so'm irrigatsiya va melioratsiya harajatlari hisobiga olingan qo'shimcha hosil va mahsulot ko'rsatkichi ikkala xizmatlarga sarflangan harajatlar samaradorligini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi.
- Irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlar rentabelligi esa, ushbu xizmatlar samaradorligining yakunlovchi ko'rsatkichi sifatida gavdalanib, xizmatlarning foydalilik darajasini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017, №6 (766). – B. 223–248.
2. Шохужаева Зебо Сафоевна. Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов // Economics. 2020. №1 (44). URL:

- <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-v-selskom-hozyaystve-po-ispolzovaniyu-vodnyh-resursov> .
3. Shoxo'jayeva Z. S., Norqobilov M. Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan //Наукаитехника. Мировыеисследования. – 2020. – С. 25-28.обращения: 03.03.2021).
 4. Efficiency Of Formation And Use Of Water Resources In Irrigated Agriculture Of The Republic Of Uzbekistan. ZS Shoxujaeva, MN Utkirovna - The American Journal of Interdisciplinary Innovations, 2020
 5. Шохўжаева З. С., Маманазарова Н. Ж. Эффективность инновационных процессов в сельскохозяйственном развитии //Минтақа иктисодиётини инвестициялашнинг молиявий-хуқуқий ва инновацион жиҳатлари. – 2020. – С. 329-333.
 6. Shoxo'jayeva Z. S. Problems and solutions in the water sector of the region //Наукаитехника. Мировыеисследования. – 2020. – С. 21-24.
 7. ШохўжаеваЗ.С., АкбароваШ.Я.
ЭффективностьинвестицийвэкономикуюКашкадаринскойобласти
//Минтақаиктисодиётиниинвестициялашнингмолиявий-
хуқуқийваинновационжиҳатлари. – 2020. – С. 203-208.
 8. Z.S.Shoxujaeva. Economic efficiency of water resources use in the agricultural sector. Monograph. Т.: "Economy and Finance" Publishing House, 2012.<http://scholar.google.com/scholar?cluster=9083367974115155298&hl=en&oi=scholar>
 9. Shoxujaeva Zebo Safoevna, Mamanazarova Nasiba Juraevna. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. https://cibg.org.au/index.php/cibg/article/view/article_10445.html
 10. Shoxo'jaeva Zebo Safoevna, Samandarov Mirzoxid Mirjamilovich. Development of entrepreneurship and improvement of organizational and economic bases of its state regulation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. <https://saarj.com>. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.492. DOI 10.5958/2249-7137.2021.00780.1.
 11. Shoxo'jaeva Zebo Safoevna, Murodova Nargiza Utkirovna. Organizational and economic basis for the development of cotton and textile clusters. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. <https://saarj.com>. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.492. DOI 10.5958/2249-7137.2021.00531.0
 12. Shoxo'jaeva Zebo Safoevna, Temirova Feruza Sagdullaevna. Food provision of the population of the Republic of Uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. <https://saarj.com>. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.492. DOI 10.5958/2249-7137.2021.00535.8.